

KORPORATIV LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Xolmamatov D.H.

SamISI, professor, i.f.f.d.

ORCID: 0000-0002-8211-9309

Annotatsiya

Mazkur maqolada korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda ta'minot zanjirlari murakkabligining ortishi sharoitida logistika tizimini strategik boshqarishning korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada logistika strategiyasining korporativ strategiya bilan o'zaro bog'liqligi, integratsiyalashgan logistika konsepsiyasining mazmuni hamda logistika tizimini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korporativ logistika tizimi, logistika strategiyasi, integratsiyalashgan logistika, ta'minot zanjiri, logistika menejmenti, logistika xarajatlari, logistika servisi, raqamli logistika, logistika infratuzilmasi, strategik boshqaruv, raqobatbardoshlik, logistika samaradorligi.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты стратегий развития корпоративной логистической системы. Обоснована значимость стратегического управления логистической системой в обеспечении конкурентоспособности предприятий в условиях ускорения процессов глобализации, развития цифровой экономики и возрастающей сложности цепей поставок. В статье проанализированы взаимосвязь логистической стратегии с корпоративной стратегией, содержание концепции интегрированной логистики, а также современные подходы к развитию логистических систем.

Ключевые слова: корпоративная логистическая система, логистическая стратегия, интегрированная логистика, цепь поставок, логистический менеджмент, логистические издержки, логистический сервис, цифровая логистика, логистическая инфраструктура, стратегическое управление, конкурентоспособность, эффективность логистики.

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of corporate logistics system development strategies. The study substantiates the importance of strategic logistics management in ensuring enterprise competitiveness under the conditions of accelerating globalization processes, the development of the digital economy, and the increasing complexity of supply chains. The article analyzes the relationship between logistics strategy and corporate strategy, explores the essence of the integrated logistics concept, and reviews modern approaches to the development of logistics systems.

Keywords: corporate logistics system, logistics strategy, integrated logistics, supply chain, logistics management, logistics costs, logistics service, digital logistics, logistics infrastructure, strategic management, competitiveness, logistics efficiency.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobat muhitining keskinlashuvi, globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish hamda raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlariga keng joriy etilishi korxonalar faoliyatini strategik boshqarishning yangi yondashuvlarini talab etmoqda. Zamonaviy korxonalar uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishish, bozor ulushini kengaytirish va mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirish maqsadida o'z faoliyatini puxta ishlab chiqilgan korporativ strategiyalar asosida tashkil etadilar. Bunda korxonaning rivojlanish istiqbollari, ichki salohiyati va tashqi muhit omillari hisobga olinib, o'sish, mavjud pozitsiyalarni saqlab qolish yoki faoliyatni qayta tashkil etishga qaratilgan strategik yo'nalishlardan biri tanlanadi.

Korxonalar tomonidan tanlanadigan strategik yo'nalishlar ishlab chiqarish, marketing, moliya va inson resurslarini boshqarish bilan bir qatorda logistika tizimining ham samarali faoliyat yuritishini taqozo etadi. Chunki logistika tizimi moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni muvofiqlashtirish orqali korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, global ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi, transport-logistika xarajatlarining ortishi va mijozlar talablarining o'zgaruvchanligi sharoitida logistika tizimini strategik rivojlantirish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida muhim omilga aylanmoqda.

Korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyasi korxonaning umumiy rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, logistika xarajatlarini optimallashtirish, ta'minot zanjiri ishonchligini ta'minlash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratiladi. Shu bilan birga, logistika strategiyasi korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirib, raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda logistika operatsion faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning strategik boshqaruvdagi o'rni yetarli darajada baholanmaydi. Natijada logistika jarayonlari va korporativ maqsadlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelib, resurslardan foydalanish samaradorligi pasayadi. Holbuki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi logistika strategiyasining korporativ strategiya bilan integratsiyalashuvi korxonalarining bozor qiymati, rentabelligi va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro logistika koridorlariga integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashtirish korporativ logistika tizimlarini takomillashtirish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli korxonalarining strategik rivojlanish maqsadlariga mos keluvchi samarali logistika strategiyalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda logistika tizimining korporativ boshqaruvdagi rolini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish masalasi logistika va ta'minot zanjirlarini boshqarish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim

yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Global raqobatning kuchayishi, taʼminot zanjirlarining murakkablashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi logistika tizimlarini korxonalarining strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli logistika strategiyalarining nazariy asoslari, ularni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Logistika strategiyasining korporativ boshqaruvdagi oʻrni dastlab strategik menejment nazariyasi doirasida oʻrganilgan. Xususan, I.Larionov strategik boshqaruvni tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish vositasi sifatida talqin qilib, funksional strategiyalarning korporativ strategiya bilan uygʻunligini taʼminlash zarurligini taʼkidlaydi [12]. Ushbu yondashuv logistika strategiyasini korxonada umumiy rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida koʻrib chiqish uchun nazariy asos yaratadi.

Logistika strategiyasining mazmuni va amaliy ahamiyati masalalari D.R.Stok va D.M.Lambert tomonidan chuqur tadqiq etilgan [13]. Ularning fikricha, logistika strategiyasi korxonaning moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarini boshqarish orqali xarajatlarni minimallashtirish hamda isteʼmolchilar uchun yaratiladigan qiymatni oshirishga xizmat qiladi. Mualliflar logistika tizimini korxonada raqobatbardoshligini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholaydilar. Shuningdek, S.Taran logistika strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etib, logistika qarorlarini korporativ maqsadlar bilan muvofiqlashtirish korxonada samaradorligini oshirishning asosiy sharti ekanligini asoslaydi [14].

Taʼminot zanjirlari orqali raqobat ustunligini shakllantirish masalalari A.Garrison va R.Van Gok tadqiqotlarida keng yoritilgan [10]. Olimlar zamonaviy korxonalar alohida subyekt sifatida emas, balki taʼminot zanjirining tarkibiy elementi sifatida raqobatlashishini taʼkidlaydilar. Ularning fikricha, logistika tizimining strategik rivojlanishi taʼminot zanjiri ishtirokchilari oʻrtasidagi hamkorlik darajasiga, axborot almashinuvi samaradorligiga va integratsiyalashuv mexanizmlariga bevosita bogʻliqdir.

Korxonalarda logistika tizimlarini shakllantirish va ularning tashkiliy tuzilmalardagi oʻrnini aniqlash masalalari V.S.Kolodinning ham ilmiy tadqiqotlarida oʻrganilgan [11]. Ushbu ishlarda logistika funksiyalarining markazlashuvi va integratsiyalashuvi korxonada boshqaruvining samaradorligini oshirishi hamda operatsion xarajatlarni kamaytirishi asoslab berilgan.

Logistika strategiyalarining raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanmoqda. E.Sandberg zamonaviy logistika boshqaruvi tamoyillarini tahlil qilib, logistika strategiyalarini ishlab chiqishda moslashuvchanlik, barqarorlik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etishini taʼkidlaydi [9]. Muallif logistika tizimlarini strategik boshqarishda maʼlumotlar tahlili, sunʼiy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining roli ortib borayotganligini qayd etadi.

Raqamli biznes modellari va logistika xizmatlarining transformatsiyasi masalalari A.Agatic, E.Tijan, T.Poletan Jugovic va A.Jugovic tomonidan tadqiq etilgan [1].

Ularning ilmiy izlanishlarida raqamli platformalar, elektron tijorat va integratsiyalashgan axborot tizimlari logistika xizmatlarining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar logistika xizmatlari bozorida raqamli biznes modellarining qo'llanilishi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va logistika xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishini asoslaydilar.

Sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida logistika jarayonlarini takomillashtirish masalalari B.Asdecker va V.Felch tomonidan o'rganilgan [2]. Mualliflar ta'minot zanjirlarida yetkazib berish jarayonlarining raqamli yetuklik modelini ishlab chiqib, logistika tizimlarini rivojlantirishda avtomatlashtirish, sensor texnologiyalar va real vaqt rejimidagi monitoring vositalarining muhimligini ko'rsatib berganlar. Ushbu yondashuv logistika strategiyalarini ishlab chiqishda texnologik tayyorgarlik darajasini baholash zaruratini asoslaydi.

Logistika samaradorligini oshirishda resurslardan foydalanish va quvvatlarni optimallashtirish masalalari L.Barreto, A.Amaral va T.Pereira tadqiqotlarida yoritilgan [3]. Olimlar ishlab chiqarish va logistika tizimlarida quvvatlardan foydalanish darajasi bilan operatsion samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan modellarni taklif etganlar. Bu esa logistika strategiyasining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Texnologik taraqqiyotning logistika va ta'minot zanjirlarini boshqarishga ta'siri R.Bhandari tomonidan o'rganilgan bo'lib, muallif zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining logistika jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish sifatini oshirishdagi rolini asoslab bergan [4].

Makrologistika darajasida logistika samaradorligini baholash masalalari R.Beysenbaev va Y.Dus tomonidan o'rganilgan [5]. Ular Logistika samaradorligi indeksini (LPI) takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, logistika infratuzilmasi, bojxona jarayonlari va transport xizmatlari sifatining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Ushbu tadqiqot natijalari korporativ logistika tizimlarini rivojlantirishda tashqi logistika muhiti omillarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Ta'minot zanjirlarining barqarorligi va korporativ boshqaruvning zamonaviy talablari bilan uyg'un holda takomillashtirish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sharoitida logistika strategiyalarini korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyalash, ularning samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida logistika tizimlarining moslashuvchanligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati va dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolaning metodologik asosini korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish va takomillashtirishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar, logistika menejmenti nazariyalari, strategik boshqaruv konsepsiyalari hamda integratsiyalashgan logistika tamoyillari tashkil etadi. Maqolani yozishda

logistika tizimining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri, uning korporativ strategiya bilan o'zaro bog'liqligi va ta'minot zanjirlarini boshqarishdagi o'rni tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Korporativ logistika tizimlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Mahalliy va xorijiy olimlarning logistika strategiyalari, ta'minot zanjirlarini boshqarish hamda logistika tizimlarini integratsiyalashga oid ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv usuli alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu yondashuv korporativ logistika tizimini o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan murakkab boshqaruv tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bunda ta'minot, ishlab chiqarish, omborlashtirish, transport, distributsiya va axborot oqimlari yagona logistika tizimining tarkibiy qismlari sifatida baholandi. Tizimli yondashuv asosida logistika strategiyalarining korxonaning umumiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unligi hamda logistika faoliyatining boshqa funksional yo'nalishlar bilan integratsiyalashuv darajasi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy korxonalarining faoliyati tobora murakkablashib borayotgan bozor munosabatlari, globallashtirish jarayonlari va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda logistika tizimining strategik boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda logistika jarayonlari operatsion faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning strategik boshqaruvdagi o'rni yetarlicha baholanmaydi. Natijada logistika faoliyati korxonaning umumiy rivojlanish maqsadlari bilan to'liq integratsiyalashmagan holda amalga oshiriladi.

Korxonalarda logistika strategiyasining shakllanmaganligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, logistikaning korxonalar resurslarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan boshqaruv vositasi sifatidagi mohiyati to'liq anglab yetilmagan. Ikkinchidan, logistika sohasida strategik qarorlar qabul qila oladigan malakali mutaxassislar yetishmovchiligi mavjud. Uchinchidan, logistika faoliyati ko'pincha ta'minot, ishlab chiqarish va sotuv bo'limlari o'rtasida taqsimlangan bo'lib, yagona boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirilmaydi. Bu esa logistika xarajatlarining ortishi, resurslardan samarasiz foydalanish va ta'minot zanjirlarida uzilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot davomida korporativ logistika tizimining iyerarxik tuzilmasi tahlil qilindi. Mazkur yondashuvga ko'ra, logistika tizimining samarali faoliyati korxonaning missiyasi va korporativ strategiyasidan boshlanadi. Ushbu strategik yo'nalishlar asosida logistika konsepsiyasi, logistika missiyasi, logistika strategiyasi hamda uni amalga oshiruvchi texnologiyalar va funksional quyi tizimlar shakllantiriladi. Bunday ketma-ketlik logistika faoliyatining korxonaning umumiy

maqsadlari bilan uyg'unligini ta'minlaydi hamda barcha logistika qarorlarini yagona strategik yo'nalishga bo'ysundirish imkonini beradi.

Korporativ logistika tizimini rivojlantirishda integratsiyalashgan logistika konsepsiyasi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya logistika faoliyatini alohida funksiyalar yig'indisi sifatida emas, balki moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni yagona tizim doirasida boshqaruvchi strategik mexanizm sifatida talqin qiladi. Integratsiyalashgan logistika yondashuvi ta'minot, ishlab chiqarish, ombor xo'jaligi, transport va distributsiya jarayonlarini o'zaro bog'lash orqali korxonada faoliyatining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar korporativ logistika tizimining samaradorligi ta'minot, ishlab chiqarish va sotuv jarayonlari o'rtasidagi integratsiya darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Mikroiqtisodiy darajada logistika tizimini optimallashtirish alohida bo'linmalar faoliyatini takomillashtirish bilan emas, balki butun logistika zanjirining samaradorligini oshirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda xaridlarni boshqarish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, zaxiralarni nazorat qilish va mahsulotlarni yetkazib berish jarayonlari yagona axborot maydonida boshqarilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni logistika tizimiga joriy etish korporativ logistika strategiyasining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ERP, WMS, TMS va SCM kabi axborot tizimlaridan foydalanish logistika jarayonlarining shaffofligini oshiradi, qaror qabul qilish tezligini yaxshilaydi hamda logistika xarajatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida ma'lumotlarni monitoring qilish imkoniyati mahsulot yoki xizmatning harakatini logistika zanjirining istalgan bosqichida kuzatish imkonini beradi. Bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan birga ta'minot zanjiri barqarorligini ham mustahkamlaydi.


O'tkazilgan tahlillar asosida korporativ logistika tizimini rivojlantirishning quyidagi strategik yo'nalishlari taklif etildi:

- logistika strategiyasini korxonaning umumiy korporativ strategiyasi bilan integratsiyalash;
- ta'minot, ishlab chiqarish va sotuv jarayonlarini yagona logistika tizimi asosida muvofiqlashtirish;
- logistika faoliyatini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;
- logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion logistika texnologiyalaridan foydalanish;
- logistika risklarini boshqarish va ta'minot zanjirlarining barqarorligini oshirish;
- logistika sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va inson kapitalini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari korporativ logistika tizimining samarali rivojlanishi korxonaning strategik maqsadlari, logistika konsepsiyasi va zamonaviy texnologik imkoniyatlar o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liqligini ko'rsatdi. Logistika strategiyasining korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi moddiy, moliyaviy va axborot

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi hamda korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish bugungi kunda korxonalar barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Integratsiyalashgan logistika konsepsiyasi nuqtai nazaridan logistika strategiyasini korxonaning logistika faoliyatini uzoq muddatli rivojlantirishga qaratilgan, uni amalga oshirish shakllari va vositalarini belgilovchi, korporativ maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan hamda funksiyalar-aro va tashkilotlararo integratsiyani nazarda tutuvchi strategik boshqaruv yo'nalishi sifatida talqin qilish mumkin. Mazkur yondashuv logistika tizimini korxonaning alohida funksional bo'linmasi emas, balki umumiy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.



1-rasm. Korporativ logistika tizimini yaratish iyerarxiyasi¹.

Amaliyotda qo'llanilayotgan logistika strategiyalari korxonaning ustuvor maqsadlariga qarab turlicha shakllanadi. Biroq ularning aksariyati ma'lum bir asosiy samaradorlik ko'rsatkichini optimallashtirishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, logistika

¹ Muallif ishlanmasi

xarajatlarini minimallashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, logistika tizimi unumdorligini ko'paytirish, ta'minot zanjirining moslashuvchanligini ta'minlash yoki logistika infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar keng tarqalgan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari logistika strategiyasini tanlash jarayonida bir mezonli yondashuvning imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatdi. Masalan, umumiy logistika xarajatlarini minimallashtirish strategiyasi korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati pasayishga olib kelishi mumkin. Aksincha, logistika servisining yuqori darajasini ta'minlashga qaratilgan strategiya qo'shimcha ombor maydonlari, transport resurslari va axborot texnologiyalariga investitsiyalarni talab etadi. Natijada logistika xarajatlari ortadi. Shu sababli logistika tizimini rivojlantirishda xarajatlar va xizmat ko'rsatish sifati o'rtasidagi optimal muvozanatni topish muhim vazifa hisoblanadi.

O'rganilgan ilmiy manbalar va amaliy tajribalar logistika strategiyalarini ishlab chiqishda ko'p mezonli optimallashtirish yondashuvidan foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy korxonalar faoliyatida logistika samaradorligini faqat xarajatlar yoki foyda ko'rsatkichlari orqali baholash yetarli emas. Bunda logistika servisining sifati, buyurtmalarni bajarish tezligi, zaxiralar aylanuvchanligi, transport xarajatlari, ta'minot zanjirining barqarorligi va ekologik samaradorlik kabi ko'rsatkichlar ham kompleks ravishda hisobga olinishi lozim.

Tahlillar asosida korporativ logistika tizimini rivojlantirishning quyidagi strategik modellari ajratib ko'rsatildi:

- xarajatlar yetakchiligi strategiyasi, bunda asosiy e'tibor logistika xarajatlarini minimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratiladi;
- mijozlarga yo'naltirilgan logistika strategiyasi, bunda logistika xizmatlari sifati, yetkazib berish tezligi va buyurtmalar aniqligi ustuvor ahamiyat kasb etadi;
- innovatsion logistika strategiyasi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan omborlar va aqlli logistika yechimlarini joriy etishga asoslanadi;
- integratsiyalashgan ta'minot zanjiri strategiyasi, ta'minotchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar va iste'molchilar o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi;
- barqaror logistika strategiyasi, ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda logistika jarayonlarining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashni nazarda tutadi;
- logistika outsorsing strategiyasi, logistika xizmatini ko'rsatuvchi uchinchi tomon logistika provayderlarini jalb qilish.

Korporativ logistika tizimi uchun eng samarali strategiya yagona universal model emas, balki korxonaning rivojlanish bosqichi, bozor sharoiti, resurs salohiyati va korporativ maqsadlariga mos ravishda shakllantirilgan kompleks strategik yondashuv hisoblanadi. Bunda logistika strategiyasi bir tomondan korporativ strategiyaning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashi, ikkinchi tomondan esa integratsiyalashgan logistika konsepsiyasi tamoyillariga asoslanishi zarur.

1-jadval
Asosiy logistika strategiyalari¹

Strategiya turi	Ularni amalga oshirish texnologiyalari
Umumiy logistika xarajatlarini minimallashtirish strategiyasi	– logistika tizimining alohida funksional yoʻnalishlarida operatsion xarajatlarni minimallashtirish; – logistika tizimidagi tovar-moddiy zaxiralar hajmini maqbullashtirish; – omborlashtirish va transport xizmatlari oʻrtasidagi eng samarali nisbatni tanlash; – funksional boʻlinmalarda logistika xarajatlarining eng kam darajasiga erishishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini optimallashtirish.
Logistika xizmatlari sifatini oshirish strategiyasi	– transport, ombor xoʻjaligi, yuklarni qayta ishlash hamda qadoqlash jarayonlari kabi logistika funksiyalarining sifat koʻrsatkichlarini oshirish; – mahsulotlarni sotishdan oldingi va sotishdan keyingi xizmatlar samaradorligini logistika mexanizmlari orqali taʼminlash; – qoʻshimcha qiymat yaratuvchi logistika servislarini joriy etish; – mahsulotning butun hayotiy sikli davomida logistika qoʻllab-quvvatlash texnologiyalaridan foydalanish; – logistika xizmatlari sifatini kompleks boshqarish tizimini shakllantirish; – sifat menejmenti tizimini ISO 9000 va boshqa xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirish orqali logistika xizmatlari ishonchligini taʼminlash.
Logistika infratuzilmasiga investitsiyalarni minimallashtirish strategiyasi	– logistika tarmogʻining optimal konfiguratsiyasini shakllantirish; – mahsulotlarni isteʼmolchilarga bevosita yetkazib berish tizimini rivojlantirish; – umumiy foydalanishdagi ombor xoʻjaligi obyektlaridan samarali foydalanish; – logistika jarayonlariga ixtisoslashgan vositachi tashkilotlarni jalb etish; – “aniq vaqtida” (Just-in-Time) logistika texnologiyasini joriy etish; – logistika infratuzilmasi obyektlarini joylashtirishning optimal variantlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Natijalar asosida korporativ logistika tizimini rivojlantirishning konseptual modeli taklif etildi. Ushbu modelda korporativ missiya va strategik maqsadlar logistika missiyasini shakllantiradi, logistika missiyasi esa tegishli logistika strategiyalarini belgilaydi. Oʻz navbatida, logistika strategiyalari raqamli texnologiyalar, infratuzilma, inson kapitali va boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Natijada logistika xarajatlarining kamayishi, xizmat koʻrsatish sifatining oshishi, taʼminot zanjirining barqarorlashuvi va korxonalar raqobatbardoshligining kuchayishiga erishiladi.

Korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarining samaradorligi ularning korporativ rivojlanish maqsadlari bilan uygʻunligi, logistika jarayonlarining integratsiyalashuv darajasi hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish koʻlami bilan belgilanadi. Mazkur omillarni hisobga olish korxonalarga oʻz logistika tizimlarini yanada moslashuvchan, samarali va barqaror boshqarish imkonini beradi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Global ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi, bozor talablarining o'zgaruvchanligi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi logistika faoliyatini operatsion boshqaruv darajasidan strategik boshqaruv darajasiga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot davomida logistika strategiyasi korxonaning umumiy rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi, moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishga qaratilgan uzoq muddatli strategik yo'nalish ekanligi asoslandi. Logistika strategiyasining samaradorligi uning korporativ strategiya bilan uyg'unligi hamda integratsiyalashgan logistika konsepsiyasi tamoyillariga asoslanishi bilan belgilanishi aniqlandi. Korporativ va logistika strategiyalari o'rtasidagi muvofiqlik korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Tahlillar logistika tizimini rivojlantirishda yagona mezon asosida qaror qabul qilishning yetarli emasligini ko'rsatdi. Xususan, logistika xarajatlarini minimallashtirish strategiyasi xizmat ko'rsatish sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida muayyan muvozanatni ta'minlash zarur. Iste'molchilar talablarining ortishi logistika servisiga qo'yiladigan talablarni kuchaytiradi, bu esa qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli logistika strategiyalarini ishlab chiqishda ko'p mezonli optimallashtirish yondashuvlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari korporativ logistika tizimini rivojlantirishda integratsiyalashgan logistika konsepsiyasi eng samarali yondashuvlardan biri ekanligini tasdiqladi. Ushbu konsepsiya ta'minot, ishlab chiqarish, omborlashtirish, transport va sotuv jarayonlarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish orqali logistika faoliyatining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada logistika tizimi korxonalar ichidagi alohida funksiyalar yig'indisi emas, balki korporativ maqsadlarga xizmat qiluvchi yaxlit boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot davomida korporativ logistika tizimini rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlari sifatida logistika xarajatlarini optimallashtirish, logistika servisining sifatini oshirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish, ta'minot zanjiri ishtirokchilari bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi asoslandi. Ayniqsa, logistika vositachilari, ta'minotchilar va iste'molchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish korxonalariga qo'shimcha raqobat ustunliklarini shakllantirish imkonini beradi.

Logistika faoliyatini korporativ strategiyaning asosi sifatida qabul qiluvchi korxonalar bozordagi o'z mavqeyini mustahkamlash, qo'shimcha qiymat yaratish va mijozlar ehtiyojlarini samaraliroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday korxonalarda logistika menejmenti nafaqat ichki jarayonlarni muvofiqlashtirish, balki ta'minotchilar, logistika vositachilari va iste'molchilar bilan o'zaro manfaatli

munosabatlarni shakllantirish orqali butun ta'minot zanjirining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarining muvaffaqiyati korxonaning strategik maqsadlari, logistika konsepsiyasi, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiya darajasi bilan belgilanadi. Mazkur omillarning uyg'unlashuvi logistika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan korporativ logistika tizimini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va ularni amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adrijana Agatic, Edvard Tijan, Tanja Poletan Jugovic, Alen Jugovic. Digital business models in the logistics services. 2020, 1690-1695 pp. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/346785640>.

2. Asdecker B., Felch V. Development of an Industry 4 . 0 maturity model for the delivery process in supply chains // Journal of Modelling in Management. - 2018. - Vol. 13 - No. 4. - C. 840-883.

3. Barreto L., Amaral A., Pereira T. Costing models for capacity optimization in Industry Tradeoff between used capacity and operational efficiency // Procedia Manufacturing. - 2017. -Vol. 13. - C. 1245- 1252.

4. Bhandari R. Impact of Technology on Logistics and Supply Chain Management // Journal of Business and Management. - C. 19-24.

5. Beysenbaev R., Dus Y. Proposals for improving the Logistics Performance Index // Asian Journal of Shipping and Logistics. - Vol. 36(1). - C. 34-42. - 2019.

6. Bensassi S. et al. Relationship between logistics infrastructure and trade: Evidence from Spanish regional exports // Transportation Research Part A: Policy and Practice. 2015. - Vol. 72. - C. 47-61.

7. Bienstock C.C. et al. An expanded model of logistics service quality : Incorporating logistics information technology // International Journal of Production Economics. - 2008. - Vol. 113. - C. 205- 222.

8. Hoskisson et al., (1999) Theory and research in strategic management: Swings of a pendulum, Journal of Management, 25 (3), 421

9. Sandberg E. Strategic Logistics Managment: Contemporary Principles and Practice ^{1st} Edition. Kogan Page. 2025. 232 pp.

10. Гаррисон А., Ван Гок Р. Стратегия управления и конкурирования через цепочки поставок. М.: Дело и сервис, 2010. 368 с.

11. Колодин В.С. Логистические системы в производственнокоммерческой деятельности // Известия Иркутской государственной экономической академии. 2011. № 6 (80). С. 99-103.

12. Ларионов И. Стратегическое управление. М.: Дашков и КО, 2014. 236 с.
4. Логистика в оргструктуре компании // ЛОГИНФО. 2001. № 4. С. 18-20.

13. Сток Д.Р., Ламберт Д.М. Стратегическое управление логистикой. М.: ИНФРА-М, 2005. 542 с.

14. Таран С. Логистическая стратегия предприятия. Разработка и реализация. М.: Альфа-Пресс, 2010. 312 с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**